




**orazm viloyatida
bajarilgan qurilish ishlari**

2025-yil yanvar-iyun oylari uchun

- I. Jami bajarilgan qurilish ishlari
- II. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari
- III. Jami qurilish ishlari hajmining korxonalar turlari bo'yicha taqsimoti
- IV. Qurilish ishlari bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

I. Jami bajarilgan qurilish ishlari

2025-yilning yanvar-iyun oylarida Xorazm viloyatida jami 6 000,8 mlrd so'mlik qurilish ishlari bajarilib, 2024-yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 114,0 % ni tashkil etdi.



Bajarilgan qurilish ishlari dinamikasi

	Hajm, mlrd so'm	O'sish sur'ati, %
Xorazm viloyati	6 000,8	114,0
Urganch sh.	898,6	103,7
Xiva sh.	257,6	115,1
Bog'ot	211,4	112,0
Gurlan	198,0	165,7
Qo'shko'pir	239,7	111,2
Urganch	505,7	127,2
Hazorasp	314,6	108,8
Tuproqqa'l'a	114,7	107,0
Xonqa	328,3	130,0
Xiva	389,9	105,9
Shovot	265,3	111,1


Yangiariq	184,5	111,4
Yangibozor	189,7	114,5
Mavzuga doir ko'satkichlar:		
Qurilish ishlari hajmi (oylik)		
Qurilish ishlari hajmi (yillik)		

II. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari

2025-yilning yanvar- iyun oylarida Xorazm viloyatida bajarilgan qurilish ishlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi quyidagicha:

- binolar va inshootlar qurish yo'nalishi 76,6 % ulushni tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 113,3 % ni tashkil etdi;
- fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 19,7 % ulushni tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 109,8 % ni tashkil etdi;
- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi 3,7 % ulushni va 2024-yilning mos davriga nisbatan 168,9 % ni tashkil etdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari o'sish sur'ati va hajmi



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha korxona turlari kesimida qurilish ishlari

	Bino va inshootlar qurilishi	Fuqarolik obyektlari qurilishi	Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari
Yirik qurilish tashkilotlari hajmi, mlrd so'm	202,3	352,3	6,0
o'sish sur'ati, %	194,2	108,4	172,5
Kichik korxona va mikrofirmalar hajmi, mlrd so'm	1372,5	829,5	214,8
o'sish sur'ati, %	102,9	110,8	169,2
Norasmiy sektor hajmi, mlrd so'm	3023,3		
o'sish sur'ati, %	115,2		

Mavzuga doir ko'satkichlar:

[Bino va inshootlar qurilishi hajmi \(oylik\)](#)


[Bino va inshootlar qurilishi hajmi \(yillik\)](#)

[Fuqarolik obyektlari qurilishi hajmi \(oylik\)](#)



Fuqarolik obyektlari qurilishi hajmi (yillik)
Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi (oylik)
Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi (yillik)

III. Jami qurilish ishlari hajmining korxonalar turlari bo'yicha taqsimoti va o'sish sur'ati




Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 2025-yilning yanvar-iyun oyida bajarilgan qurilish ishlari hajmi 560,6 mlrd so'mni tashkil etdi. Ko'rib chiqilayotgan davrda qurilish ishlari hajmi 2024-yilning mos davriga nisbatan 129,6 % ni va ularning umumiy hajmdagi ulushi 1,2 % ga ko'payib, 8,6 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 40,3 % i to'g'ri kelib, qurilish ishlari hajmi 2024-yilning mos davriga nisbatan 109,4 % ni tashkil etgan holda 2 416,8 mlrd so'm miqdorida qayd etildi.

Norasmiy sektorda qurilish ishlarining ulushi 50,4% ni yoki 3 023,4 mlrd so'mni tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 115,2 % ni tashkil etdi.

**Korxona turlari bo'yicha bajarilgan
qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'atlari**



Hududlar kesimida korxona turlari bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari

	Hajm, mlrd so'm			O'sish sur'ati, % da		
	Yirik	Kichik va mikrofirma	Norasmiy sektor	Yirik	Kichik va mikrofirma	Norasmiy sektor
Xorazm viloyati	560,6	2 416,8	3 023,4	129,6	109,4	115,2
Urganch sh.	125,0	638,3	135,3	74,0	111,0	110,2
Xiva sh.	6,8	187,0	63,8	116,1	114,6	116,5
Bog'ot	59,5	76,7	75,2	163,6	83,0	125,6
Gurlan	4,3	127,9	65,8	123,7	213,8	116,9
Qo'shko'pir	28,8	117,8	93,1	767,7	91,2	112,8
Urganch	35,3	241,2	229,3	162,8	136,5	114,9
Hazorasp	4,6	137,0	173,0	35,3	113,2	111,7
Tuproqqal'a	11,3	62,8	40,6	79,6	111,8	110,2
Xonqa	105,8	102,8	119,7	326,3	89,3	113,9
Xiva	113,3	208,5	68,1	196,1	82,3	119,7
Shovot	8,1	173,8	83,5	34,5	120,4	117,7
Yangiariq	3,2	105,5	75,9	57,6	106,9	123,6
Yangibozor	8,0	70,6	111,1	92,3	114,0	116,9



Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlaringning eng yuqori o'sish sur'atlari Xiva tumanida (2024-yilning mos davriga nisbatan 2,0 m.), Xonqa tumani (3,3 m.) va Qo'shko'pir tumanida (7,7 m.) qayd etildi.

Ko'rib chiqilayotgan davrda kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlaringning eng yuqori o'sish sur'atlari Gurlan tumani (2024-yilning mos davriga nisbatan 2,1 m.), Urganch tumani (136,5 %) va Shovot tumani (120,4 %) kuzatildi.

IV. Qurilish ishlari uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Qurilish ishlari – bino va inshootlarni barpo etish, qayta tiklash, kengaytirish, kapital va joriy ta'mirlash ishlari majmuasi sifatida qurilish ishlab chiqarishining natijasidir.

Qurilish ishlari qiymatiga qurilish uchastkalarining o'zlashtirish ishlari rejasini tuzish va tayyorlash, suv ta'minoti, issiqlik, kanalizatsiya, poydevorlarni o'rnatish, devorlarni ko'tarish, bino konstruksiyalarini montaj qilishning sanitarni-texnika ishlari, boshqa pudrat ishlari (ishga tushirish va sozlash, gidroyuvish ishlari, yer qatlamini ochish, texnik-madaniy ishlar va boshqalar) kiritiladi.

Qurilish ishlaringning statistik hisobi davrining amaldagi narxlarida, qo'shilgan qiymat solig'ini qo'shmagan holda, to'lov muddatidan qat'i nazar, hisobot davrida haqiqatda bajarilgan hajm bo'yicha amalga oshiriladi.

- Qurilish ishlari hajmi bo'yicha statistik ma'lumotlar quyidagilar asosida shakllantiriladi:
- a) qurilish faoliyatini olib boruvchi yuridik shaxslarning statistika hisobotlari (oylik, yillik);
 - b) kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyatining choraklik tanlanma kuzatuv natijalari;
 - d) jismoniy shaxslar tomonidan yakka tartibdagi uy-joy va noturar-joy obyektlar qurilishi monitoringi bilan shug'ullanuvchi O'zbekiston Respublikasi Davlat kadastrlari palatasining hududiy boshqarmalari statistika hisobotlari;
 - e) foydalanshga topshirilgan yakka tartibdagi uy-joylarni tanlama statistik kuzatuvi ma'lumotlari;
 - f) yakka tartibdagi uy-joylarni xo'jalik usuli bilan ta'mirlash hajmini statistik baholash.

Metama'lumot uchun havola:

<https://stat.uz/files/349/METAMALUMOTLARuz/1875/Qurilish-ishlari.pdf>

<https://stat.uz/files/349/METAMALUMOTLARuz/1877/Aholi-jon-boshiga-qurilishishlari.pdf>

Tayyorlash uchun mas'ul:
Investitsiyalar va qurilish
statistikasi boshqarmasi

Ijrochi:
B. Tillayev
62 227-77-88 (9020)

Manzil: